

## О'QUVCHILARNING МАТЕМАТИКА ФАНИДАН ТАЯНЧ КОМПЕТЕНСИЯЛАРНИ ТАКОМИЛЛАСHTIRISH

*Abdumalikova Dilnoza Fayzullo qizi*

*Toshkent viloyati Olmaliq shahar kasb-hunar maktabi*

*Matematika fani*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarning matematika fanidan tayanch kompetensiyalarni takomillashtirish, maktabda matematika ta'limini yangi sifat bosqichiga olib chiqish, matematika fanlarini o'qitishda yo'naltirilgan darslar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish to'g'risida batafsil muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** matematika fani, tayanch kompetensiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompetentlik yondashuv.

### **Kirish:**

Matematika ta'limining ahamiyati uning fan va texnika taraqqiyotidagi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ishlab chiqarish sohaslarida va kundalik hayotdagi o'rni bilan belgilanadi. Iqtisodiy talablarga javob beradigan ijodkor va ijodkor kadrlar tayyorlash bilan birga, bu yutuqlardan iste'molchi sifatida foydalanayotganlarga ham sifatli ta'lim berilishi kerak. Matematika faniga qiziqish uyg'otish o'qitish uslubining yuksak saviyasiga, o'quv-tarbiya ishlarining qanchalik mahorat bilan qurilganligiga bog'liq sanaladi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya:**

O'quvchilarga matematika fanini o'rgatish uchun o'qituvchi mazkur fanlarni yaxshi bilishi, o'qitish usullaridan mohirona foydalana olishi lozim. Shu bilan birga, pedagogika, psixologiya va boshqa fanlarni chuqur bilish zarur. Mashg'ulotning muhim maqsadi o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini, mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish, kerak bilimlarni egallashdan iborat.

Maktabda matematika ta'limini yangi sifat bosqichiga olib chiqish maktab o'qituvchilarining salohiyati, kasbiy mahorati va ijodkorligiga bevosita bog'liq. Ma'lumki, matematika o'qituvchilarining malakasini oshirish, ularni zamonaviy ta'lim metod va texnologiyalari bilan qurollantirish matematika ta'limi oldida turgan jiddiy masalalardan biridir. Matematika darslarini tashkil qilishda nazariyadan ko'ra amaliyotga ko'proq e'tibor qa va o'quvchilarni tayyor o'quv materiallari bilan ta'minlashga asoslangan yondashuvdan ma'lum darajada voz kechish kerak.

Matematikaning hamma sohalari fanning umumiyliigi bilan birlashtiriladi. Ma'lumki, haqqoniy borliq olamning fazoviy shakllari va miqdoriy munosabatlari matematika fanining asosini tashkil etadi. Turli matematik fanlar ana shu fazoviy shakllari va miqdoriy munosabatlarning xususiy hollari yoki alohida ko'rinishlari bilan ish olib boriladi. Shuningdek, o'ziga xos bo'lgan usullar bilan ajralib chiqishi ham mumkin.

### **Natijalar:**

Matematik ta'limga kompetentlik yondashuvi o'quvchilarning kasbiy, shaxsiy va kundalik hayotida duch keladigan vaziyatlarda samarali harakat qilish imkonini

beradigan amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va shakllantirishni, shuningdek, matematik ta'limning amaliy yo'nalishlarini mustahkamlashni nazarda tutadi.

Matematika fanlarini o'qitishga yangi texnik vositalar, jumladan, kompyuterlar va boshqa axborot texnologiyalari jadal kirib borayotgan bugungi kunda fanlararo uzviylikni ta'minlash maqsadida informatika fanining yutuqlaridan foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Ta'lim muassasalarida kompyuter texnologiyalarining joriy qilinishi o'quv jarayonini optimallashtirishga keng yo'l ochadi.

#### **Muhokama:**

Matematikaga qiziqish uyg'otish o'qitish usulini yuqori darajasiga va o'quv ishini qanchalik bilan qurishiga bog'liq. Darsda har bir o'quvchi faol va zavq bilan ishlashi, hamda bilimga intilishini paydo bo'lishi va shakllanishini boshlang'ich nuqta qilib foydalanish, bilim olishga qiziqishini chuqurlashtirishga e'tiborli bo'lish zarur. Bu ayniqsa o'smir yoshdagilarga muhim, qachon yana rivojlantiriladi, faqat doimiy qiziqishlari va shu yoki boshqa fanga qiziqishini aniqlash kerak. Shu vaqtda matematikani jalb qiladigan jihatlarini tanqid qilinishi tez bo'lishi lozim.

O'qituvchilarning matematika fanlarini o'qitishda yo'naltirilgan darslar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil qilish, ta'lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta, chuqur o'zlashtirilishi, ularda amaliy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishining kafolati bo'la oladi.

#### **Xulosa:**

Xulosa o'rnida shini aytish mumkinki, o'quvchilar biror matematik qonuniyatni ifoda qilmoqchi bo'lgan fikrlarini belgilar bilan to'g'ri ifodalay olishlari va aksincha belgi shaklida ifoda qilingan matematik qonuniyatni o'z ona tillaridan ifoda eta olishlariga o'rgatish orqali ularda matematik, madaniyat takomillashtiriladi. Matematika fanini o'qitishda, undagi mavzularni tushuntirishda va ko'rgazmalilikni tashkil qilishda zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan ham foydalanish mumkin.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi. Toshkent. "Turon-Iqbol". 2016.
2. Yunusova D.I. Matematika o'qitishning zamonaviy texnologiyalari, T.: 2007.
3. A.Nurmetov, I.Qodirov Matematikadan sinfdan tashqari va fakultativ mashg'ulotlar. –T: O'qituvchi, 2000.
5. Abduraxmonov A., Narmonov A., Normurodov N. Matematika tarixi. T.: O'zRMU, 2004.